

## GLOBALLASHUV JARAYONIDA MILLIY XUSUSIYATLARNI SAQLAB QOLISH MUAMMOLARI

*Ashurov Lochinbek Ro'zimurotovich*

*Buxoro Davlat Universiteti magistranti*

*Jumayev Rustam*

*Buxoro Davlat Universiteti Tarix va madaniy meros fakulteti,*

*Buxoro tarixi kafedراسي*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv uning mazmuni va bugungi davrdagi ahamiyati hamda milliy til, ong va milliy qadriyatlarga ta'siri va milliy xususiyatlarni asrab qolishga oid masalalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Globallashuv, Milliy ong, milliy til, integratsiya, qadriyat. Milliy ruh, miliy madaniyat, millat.

Insoniyat yer yuzida paydo bo'lgandan boshlab, hayot uchun kurashib kelmoqda. U o'z hayotini yaxshilash va farovon yashashi uchun ilm fan texnikani yuksaltirib bormoqda. Insoniyat buyuk kashfiyotlarni amalga oshirdiki bu misli ko'rilmagan darajada muammolarni, tahdidlarni keltirib chiqardi. Texnika va texnologiyalar insoniyatni xavfsizligi va tinchligiga ta'sir etmay qolmadi. Bu esa butun dunyo xalqlarining tahdidlar ostida yashashlariga majbur etmoqda. Ayniqsa bu globallashuv jarayonlarida insoniyat yutuqlari, jahon bo'ylab ommalashib, uning asosiy samarasini yetakchilik qilib kelayotgan taraqqiy etgan mamlakatlar ko'rayotganligi, taraqqiyot yo'liga kirib borayotgan va undan orqaga qolayotgan mamlakatlar esa, ularga bog'lanib qolayotgani globallashuvning bugun va istiqbolda hamda dunyoda tengsizlik va ziddiyatlar omili bo'lishini ko'rsatmoqda.

Globallashuv o'zi nima degan savol tug'uladi.

Agar ushbu so'zni tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak bu so'z ilk bor 1960yil Giddins tomonidan foydalanilgan. Globallashuv atamasi XX asrning 90-yillarigacha

deyarli foydalanilmagan.1985 yilga kelib Amerikalik sotsiolog R.Robertson “Globallashuv “ atamasiga tushuncha bergan .Globallashuv atamasi Amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983 yil qo’llanilgan.

Globallashuv bu- hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

Globallashuv jarayonlaridan orqada qolgan mamlakat rivojlana olmaydi.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, ‘Biz boshimizdan kechirayotkan hozirgi globallashuv davri o’ta shiddat bilan o’zgarayotgani va turli tahdidlar ko’pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo’lmaydigan g’oyat murakkab vazifalarni qo’ymoqda”.Ularni millatimizni asrash .istiqbolning muhim asoslaridan biri bo’lgan ma’naviyatimiz bardavomligiga erishishdir.Mamlakatimiz mustaqillikni qo’lga kiritganidan keyin suveren davlat sifatida dunyoga tanilib bormoqda va ulkan yutuqlarga erishdi.Ammo dunyoda avj olib tobora kuchayib borayotgan globallashuv qo’lga kiritgan yutuqlarimizga xavf-xatarlarning yuzaga kelishiga ta’sir o’tkaza boshladi.Bugun davlatimiz tomonidan ma’naviyatimizni rivojlantirishga qaratilayotkan katta e’tiborga qaramay , globallashuv jarayoni ta’sirida milliy- ma’naviy qadriyatlarni susayishi va milliy o’zlikdan begonlashuv kabi salbiy holatlar yuzaga kelmoqda .Ulardan millatimizni asray olmasak ,jahonda kechayotkan ma’naviy qashshoqlashuvga g’arq bo’lib ketamiz.

Millat atamasi mohiyati M Gerder , Obauer ,M Veber kabilar tomonidan o’rganilgan.Sharq allomalarimizdan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy kabilar ham qo’llashgan .Abu Rayhon Beruniy “millat” so’zini mamlakatlar tarixi haqida bildirgan fikrlarida qo’llab ,quyidagicha yozadi; “Ehtimol ,mamlakatlari bizning mamlakatimizdan uzoq millatning bizga yetib kelmagan yoki ishlatilmay qolgan tarixlari bordir”.Millat tushunchasi uzoq tarixga ega .Professor J Bahronov millat tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi.Millat –kishilarning til, hudud ,ong ,ruh, ma’naviy jihatlariga ko’ra mushtarak bo’lgan barqaror birligidir”Millatning “o’lishi”insoniyatning “O’lishiga “ olib keladi.Globallashuv jarayoni insoniyat qadriyatlarini o’zgartirib yuborishi ,millatning istiqboliga ham ta’sir ko’rsatishga olib kelmoqda .Qadriyat –voqeilikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy

,ijtimoiy,axloqiy madaniy va ma'naviy ahamiyatni ko'rastish uchun qo'llaniladigan tushunchadir.Qadriyat –bu Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar ,Masalan tinchlik,erkinlik,adolat , ma'rifat haqiqat va hokazo.Qadriyatlarni o'rganuvchi soha aksiologiya deb ataladi.Bugungi globallashuv tasiri ostida “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishi milliy qadriyatlarimizga ayniqsa yoshlarimiz tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazmay qolmayopti.Bu esa yana tarbiyaga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.Birinchi prezidentimiz Islom Karimov tabiri bilan aytganimizda “Biz xalqning nomi bilan emas ,balki ma'naviyati ,madniyati oraqali bilamiz,tarixining tag tomirigacha nazar tashlaymiz.”bugungi kunda dunyoda 2500 dan ortiq millat va etnik birliklar yashaydi, ular o'zlarining milliy xususiyatlari bilan farqlanishi bilan bir qatorda taraqqiyot darajalari bilan farq qiladilar.Milliy ong ham millat taraqqiyotining asoslaridan biri hisoblanadi globallashuv jarayonlarida .Milliy ong – millat tarixi, taqdiri va istiqboli bilan bog'liq bo'lgan ,uning manfaatlari ,muammolariga tasavvurlari va qarashlarini ifodalovchi,millat faoliyatiga ,maqsadiga yo'nalishlarni beruvchi qarashlar, g'oyalar ,fikrlar tizimidir.

Milliy ong insonning dunyoga kelishi ota –ona va oila bag'rida shakllana boshlaydi.Milliy ongning shakllanishida ota –ona va oiladagi tarbiya qadriyatlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.Milliy ong o'zgarmas ,u millatning barcha vakillarida turli ta'sirlardan xoli bola olmaydi.milliy ong tashqi va ichki tasirlar natijasida o'zgarib boradi.Bu bugungi kunda globallashuv jarayonlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.milliy ongning shakllanishi va rivojlanishning omillari milliy til, milliy o'zlikni asrash ruhiyati ,ma'naviyat , urf-odatlar, an'analar ,qadriyatlar, ma'lum hudud ,davlat va iqtisodiy aloqalarning mavjudligini tashkil qilsa ,milliy g'urur . iftixor,or-nomus va ma'suliyat milliy ong taraqqiyoti natijasi va millatning ma'naviy qiyofasidir.

Milliy qadriyatlarimizni ,urf –odatlarimizni, millatimizni asrash kerak buning uchun eng avvalo haqiqiy tarixni o'rganish lozim,Globallashuv biznig milliy madaniyatimizga ham o'z ta'sirini .o'tkazmoqda.Madaniyat- umuminsoniy xodisa .U barchaga ,millati ,yashash joyi ,diniy e'tiqodi ,jinsi ,tili,urf –odati va boshqa

jihatlari qaramasdan tegishlidir. Madaniyat –bu insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy nematlardir. Milliy madaniyatimiz durdonalari hisoblanmish adabiyot, san’at kino, teatr bugungi kunda globallasuv jarayonlarida yoshlarimizni tarbiyalashda muhim omil bulib xizmat qilmog’i lozim. Bugungi kunda televideniya va ommaviy axborot tizmi ham tarbiyaviy yo’nalishda faoliyat olib borishi kerak. afsuski ayrim bir telekanallar orqali namoyish etilayotkan ko’rsatuv va eshittirishlar, kino filmlar “ommaviy madaniyat”ni targibotchiga aylanib qolmoqda. Inson eshitganiga emas balkim ko’rganiga amal qiladi. Ana shu nuqtaiy nazardan aytadigan bilsak televideniya yoshlarga oyna ya’ni ma’naviy oziqa beruvchi vosita bo’lib xizmat qilmog’ligi lozim.

## **Xulosa**

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tishimiz joizki globallasuv ta’sir o’tkazmagan soha yuq. Ayniqsa milliy ongda o’z ta’sirini o’tkazmay qoymaydi. Ko’p mamlakatlar globallasuvni moddiy farovonligiga e’tibor berib, salbiy oqibatlarini e’tibordan chetga qoldirishadi. Bu esa insoniyat o’zini tobora halokatga olib keladigan dahshatli qurollarni va sun’iy intellektlarni ishlab chiqarmoqda ularni ommalashtirmoqda. bu esa o’z navbatida ma’naviy qashshoqlashuvga sabab bo’lmoqda. Globallasuv sharoitida milliy xususiyatlarimizni asrash va yoshlarimizni milliy g’oya ruhida tarbiyalashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan ;televideniya va OAV faoliyatini tubdan yaxshilash

IKkinchidan : Teatr va kino sohasida milliy asarlar yaratish va buyuk adiblarimiz hayoti va ijodiga oid filmlar yaratish.

Uchinchidan: internet tarmog’ida milliy ma’naviyatimiz, urf-odatlarimiz, an’analar va qadriyatlarimiz, davlat va jamoat arboblari, olimlar, milliy merosimizni aks ettiruvchi saytlar sonini ko’paytirish.

To'rtinchidan ;ta'limning barcha bosqichlarida umumiy o'rta ta'lim va olim ta'lim da ijtimoiy –gumanitar fanlarni o'qitish tizmini tubdan yaxshilash.I

### **Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati**

1. I.A.KARIMOV Yuksak manaviyat yengilmas kuch. Toshkent 2008 yil
2. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'at. Toshkent "G Gulom" nashriyot 2009 yil
3. Milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent "Ozbekiston" 2011 yil
4. S.Otamuratov Globallashuv ;Millatni asrash mas'uliyati. Toshkent "O'zbekiston" 2018 yil